| <b>Isroilov Xurshidbek Rustambek o'g'li</b>                                                                                                        |     |
| AVTOTRANSPORT XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATI HAMDA ULARDA SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....                | 521 |
| <b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>                                                                                                                |     |



|                                                                                                                                                                   |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KO'P QAVATLI UY-JOY OBYEKTлари LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....                                                | 525 |
| <b>Xikmatov Xakimxon Xamzaevich, Xalilov Nimatillo, Fattoyev Orzujon Xudoyqul o'g'li</b>                                                                          |     |
| TIJORAT BANKLARINING TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....                                  | 530 |
| <b>Djumaniyazova Shaxnoza G'afurdjanovna</b>                                                                                                                      |     |
| MINTAQA SHAHARLARIDA SANOAT ISHLAB CHIQRISH DARAJASI TAHLILI.....                                                                                                 | 535 |
| <b>Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich</b>                                                                                                                          |     |
| СТРАТЕГИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ: КАК СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ ФОРМИРУЮТ ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....                                                          | 539 |
| <b>Убайдуллоева Сабрина Кодыровна</b>                                                                                                                             |     |
| NAVOIY VILOYATIDA MEHNAT RESURLARIDAN FOYDALANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI.....                                                                               | 545 |
| <b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b>                                                                                                                               |     |
| KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH VOSITASI SIFATIDA.....                                                                                   | 551 |
| <b>Ramazonov Zafar Ulug'bekovich</b>                                                                                                                              |     |
| O'ZBEKISTON VILOYATLARIDA TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTINING BARQAROR DIVERSIFIKATSIYASI: HUDUDIY KONSENTRATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI..... | 555 |
| <b>Sayfullayeva Madina Sirojiddinovna</b>                                                                                                                         |     |
| RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI KREDITLASH MODELLARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....                            | 565 |
| <b>Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich</b>                                                                                                                        |     |
| JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING HARAKATLANTIRUVCHI OMILLARI, BELGILARI VA SHAKLLARI.....                                                                     | 575 |
| <b>Abdullayeva Zulfiya Izzatovna</b>                                                                                                                              |     |
| DAVLAT MOLIVAVIY BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: SUN'IY INTELLEKT VA BLOKCHEYN TEKNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI.....                                       | 579 |
| <b>Tilabov Nasrulla Tashmurotovich, Kustanbaeva Jansaya Marat qizi</b>                                                                                            |     |
| JAHON AMALIYOTIDA YASHIL XIZMATLAR KONSEPSIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, YO'NALISHLARI VA LOKALLASHAYOTGAN INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....                       | 584 |
| <b>Y.M. Xalikov</b>                                                                                                                                               |     |
| MILLIY IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT.....                                                                                                                        | 591 |
| <b>Karimova Iroda Abdusattarovna</b>                                                                                                                              |     |
| MEHMONXONALARDA SUV VA ENERGIYA RESURLARINI BARQAROR BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI.....                                                            | 598 |
| <b>Abbosova Sabina Hasan qizi</b>                                                                                                                                 |     |
| KORXONALARDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARNI OPTIMALLASHTIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....                                                   | 604 |
| <b>Mirzayev Ozod Furkatovich</b>                                                                                                                                  |     |
| PAXTA SANOATINI CHUQUR QAYTA ISHLASH ASOSIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH.....                                                          | 611 |
| <b>Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li</b>                                                                                                                      |     |
| РАЗВИТИЕ УРБАНИЗАЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ.....                                                                                                | 615 |
| <b>Салимова Юлдуз Исаковна</b>                                                                                                                                    |     |
| UY-JOY FONDI BOSHQARUVINING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                             | 624 |
| <b>Aminova Naima Umar qizi</b>                                                                                                                                    |     |
| STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....                                                                        | 628 |
| <b>Sultonboyeva Munira Bahodirovna, Sultanova Kamila Muktorali Kizi</b>                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING AHAMIYATI.....                                                                                          | 636 |
| <b>Mullabayev Murod Farxodjonovich</b>                                                                                                                      |     |
| THE ROLE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE DIGITAL AGE.....                                                                                                      | 641 |
| <b>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</b>                                                                                                                      |     |
| ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA BOSHQARUV USULLARIDAN FOYDALANISHNI<br>TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                | 646 |
| <b>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI<br>RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....         | 651 |
| <b>Kosbatirov Anvar Nurgaliyevich</b>                                                                                                                       |     |
| YASHIL LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHDA XALQARO MOLIIYA INSTITUTLARINING ROLI<br>VA ISTIQBOLLARI .....                                                         | 657 |
| <b>Yakubova Samira Sabitdjanovna</b>                                                                                                                        |     |
| O'ZBEKISTONDA BANK AUDITI VA INVESTITSION FAOLLIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK .....                                                                              | 660 |
| <b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>                                                                                  |     |
| CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH:<br>A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024) .....  | 664 |
| <b>Yusufjon Po'latov</b>                                                                                                                                    |     |
| AGRAR MAHSULOTLARNI QAYTA ISHLASH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY<br>MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....                                                         |     |
| <b>Sheraliyev Axror Sodiqovich, Ne'matov Javohir Zoxidjon o'g'li</b>                                                                                        |     |
| GANDBOL BILAN SHUG'ULLANUVCHI CHIZIQ O'YINCHISINI O'YIN JARAYONIDAGI TEXNIK-TAKTIK<br>TAYYORGARLIGINI MAXSUS MASHQLAR ORQALI OSHIRISH SAMARADORLIGI.....    | 677 |
| <b>R.O. Obloberdiyeva</b>                                                                                                                                   |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARI TO'LOV QOBILİYATI VA MOLIIYAVIY BARQARORLIGINING<br>IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI .....                                      | 683 |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING TO'LOV<br>QOBILİYATLARINI OSHIRISH MEKANIZMLARI VA UNING NAZARIY JIHATLARI .....                | 689 |
| <b>Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich, Ishbekova Lobar Yunusxonovna</b>                                                                                     |     |
| QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI<br>BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....                                                 | 694 |
| <b>Kenjayev Toshbolta Aminovich</b>                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY TO'LOV INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH.....                                                                           | 702 |
| <b>Ismailova Nasiba Komildjanovna</b>                                                                                                                       |     |
| КЭРРИ-ТРЕЙД В ЭПОХУ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ШОКОВ:<br>УРОКИ БЛИЖНЕВОСТОЧНОГО КОНФЛИКТА .....                                                                        | 708 |
| <b>Сулейманов Ильнур Радикович</b>                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RESIRKULYATSION AKVAKULTURA<br>TIZIMLARINING (RAS) STRATEGIK AHAMIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI ..... | 715 |
| <b>Nazokat G'ulomova</b>                                                                                                                                    |     |
| MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING<br>METODOLOGIK YONDASHUVLARI.....                                                | 719 |
| <b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING<br>INSTITUTSIONAL VA METODOLOGIK ASOSLARI .....                                 | 724 |
| <b>Xazratov Abror Panjiyevich</b>                                                                                                                           |     |
| AUDITORLIK DALILLARI VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH JARAYONINING MUHIM JIHATLARI.....                                                                           | 730 |
| <b>G'aniev Z.U.</b>                                                                                                                                         |     |
| ПОВЫШЕНИЕ ПОРОГА ПЕРЕХОДА НА НДС КАК НАЛОГОВЫЙ ИНСТРУМЕНТ<br>СТИМУЛИРОВАНИЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                     | 736 |
| <b>Буранова Лола Вахобовна</b>                                                                                                                              |     |
| <b>Садиков Искандар Гайратович</b>                                                                                                                          |     |



|                                                                                                    |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI .....                   | 744 |
| <b>Turgunbayev Utkir Begimovich</b>                                                                |     |
| BUDJET TASHKIOTLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI,<br>MAQSADI VA INSTITUTSIONAL O'RNI ..... | 749 |
| <b>Saitmurotov Saitmurot Masharip o'g'li</b>                                                       |     |



# BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI, MAQSADI VA INSTITUTSIONAL O'RNI

Saitmuratov Saitmuarat Masharip o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD

E-mail: [saitmuratovsaitmurat@gmail.com](mailto:saitmuratovsaitmurat@gmail.com)

ORCID: 0009-0008-2048-319X

**Annotatsiya.** Maqolada budjet tashkilotlarida ichki auditning iqtisodiy mohiyati, maqsadi va davlat moliyaviy boshqaruv tizimidagi institutsional o'rni nazariy, huquqiy hamda qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Adabiyotlar sharhi orqali ichki audit, ichki nazorat va davlat moliyaviy nazorati tushunchalariga doir yondashuvlar tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalari jadval va sxematik grafiklar ko'rinishida taqdim etilib, "uchta himoya chizig'i" modeli asosida funksional chegaralar ochib berilgan. Muhokama qismida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar — mustaqil ichki audit xizmatlari, nazorat tadbirlarini yagona elektron tizimda qayd etish, profilaktik yondashuv va jamoatchilik nazorati — tahlil qilingan hamda ichki auditning hisobdorlik, shaffoflik va budjet intizomi bilan bog'liqligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** ichki audit, ichki nazorat, davlat moliyaviy nazorati, budjet tashkiloti, budjet intizomi, hisobdorlik, shaffoflik, uchta himoya chizig'i, samaradorlik, korrupsiyaga qarshi kurash.

**Abstract.** This article examines the economic essence, objectives, and institutional role of internal audit in budget organizations within the public financial management system based on theoretical, legal, and comparative analysis. Through a review of the literature, approaches to the concepts of internal audit, internal control, and public financial control are systematized. The research findings are presented in the form of tables and schematic diagrams, and the functional boundaries are explained using the "Three Lines of Defense" model. The discussion section analyzes the reforms being implemented in Uzbekistan, including the establishment of independent internal audit services, the registration of control activities in a unified electronic system, a preventive approach, and public oversight. Furthermore, the relationship between internal audit, accountability, transparency, and budgetary discipline is substantiated.

**Keywords:** internal audit, internal control, public financial control, budget organization, budgetary discipline, accountability, transparency, three lines of defense, efficiency, anti-corruption.

**Аннотация.** В статье на основе теоретического, правового и сравнительного анализа исследованы экономическая сущность, цели и институциональная роль внутреннего аудита в бюджетных организациях в системе государственного финансового управления. Посредством обзора научной литературы систематизированы подходы к понятиям внутреннего аудита, внутреннего контроля и государственного финансового контроля. Результаты исследования представлены в виде таблиц и схематических графиков, а функциональные границы раскрыты на основе модели «трёх линий защиты». В разделе обсуждения проанализированы реформы, реализуемые в Узбекистане, включая создание независимых служб внутреннего аудита, регистрацию контрольных мероприятий в единой электронной системе, профилактический подход и общественный контроль. Также обоснована взаимосвязь внутреннего аудита с подотчётностью, прозрачностью и бюджетной дисциплиной.

**Ключевые слова:** внутренний аудит, внутренний контроль, государственный финансовый контроль, бюджетная организация, бюджетная дисциплина, подотчётность, прозрачность, три линии защиты, эффективность, противодействие коррупции.

## KIRISH

Davlat moliyaviy resurslaridan oqilona, tejamkor va samarali foydalanish davlat boshqaruvining markaziy vazifalaridan biridir. Budjet mablag'lari soliq to'lovchilar hisobiga shakllantirilib, jamiyat manfaatlariga sarflanishi lozimligi sababli, ularning harakatini izchil kuzatuvchi nazorat va audit tizimi davlat boshqaruvi tizimining muhim elementi hisoblanadi. So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda davlat moliyaviy nazorati jazolovchi va post-faktum yondashuvdan voz kechib, xavf-xatarlarni oldindan baholashga, kamchiliklar profilaktikasiga va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy ichki audit modeliga o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham davlat moliyaviy nazorati tizimi xalqaro standartlar asosida qayta qurilmoqda. 2022-yil 1-yanvardan boshlab budjet tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa jamg'armalarda o'tkaziladigan barcha nazorat tadbirlari, shu jumladan, ichki audit tadbirlari yagona elektron tizimda qayd etib borila boshlandi, davlat organlari tarkibida mustaqil ichki audit xizmatlari tashkil etildi [2]. Bu islohotlar ichki auditning nazariy va institutsional o'rni chuqur tadqiq etishni dolzarblashtiradi.



Tadqiqotning maqsadi — budget tashkilotlarida ichki auditning iqtisodiy mohiyatini va davlat moliyaviy boshqaruv tizimidagi o'rnini ochib berish, ichki audit, ichki nazorat va davlat moliyaviy nazorati o'rtasidagi funksional chegaralarni aniqlashtirish hamda ichki auditning hisobdorlik, shaffoflik va budget intizomi bilan bog'liqligini asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budget tashkilotlarida ichki auditning iqtisodiy mohiyati, maqsadi va institutsional o'rnini tadqiq etish masalasi davlat moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy va normativ-huquqiy manbalar tahlili ichki auditning nazorat funksiyasidan tashqari boshqaruv samaradorligini oshirish, risklarni boshqarish hamda hisobdorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi budget mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarida qonuniylik, maqsadlilik va samaradorlik tamoyillarini belgilaydi [1]. Kodeksda davlat moliyaviy nazoratining umumiy huquqiy asoslari mustahkamlangan bo'lib, u ichki audit institutining faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan normativ muhitni yaratadi. Shu bilan birga, mazkur hujjatda ichki auditning metodologik asoslari va funksional chegaralari batafsil ochib berilmaganligi sababli, bu masalalar alohida normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishning yangi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni bilan bog'liqdir [2]. Ushbu hujjatda davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish, nazorat tadbirlarini muvofiqlashtirish, risklarga asoslangan yondashuvni keng joriy etish va ichki audit xizmatlarining institutsional mustaqilligini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan zamonaviy davlat moliyaviy boshqaruvi konsepsiyalariga mos keladi hamda ichki auditning profilaktik va maslahat beruvchi funksiyalarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ichki audit faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlarini Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan namunaviy nizomda o'z aksini topgan [3]. Nizom ichki audit xizmatining maqomi, vakolatlari, hisobot berish tartibi va funksiyalarini aniq belgilab, uning davlat tashkilotlari boshqaruv tizimidagi institutsional o'rnini mustahkamlaydi. Biroq amaliyotda ichki audit xizmatlarining tashkiliy mustaqilligi, kadrlar salohiyati va metodik ta'minoti bilan bog'liq masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Xalqaro miqyosda ichki auditning nazariy asoslari Ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan International Professional Practices Framework (IPPF) hujjatlarida bayon etilgan. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, ichki audit tashkilot faoliyatini takomillashtirish va qiymat yaratishga qaratilgan mustaqil hamda obyektiv kafolat va maslahat faoliyati hisoblanadi. Ushbu yondashuv an'anaviy tekshiruv modelidan farqli ravishda ichki auditni strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida talqin qiladi. Natijada auditning asosiy e'tibori xatolarni aniqlashdan ko'ra risklarni boshqarish va korporativ boshqaruv sifatini oshirishga qaratiladi.

COSO tomonidan ishlab chiqilgan "Internal Control – Integrated Framework" modeli ichki nazorat va ichki audit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Mazkur modelga ko'ra, samarali ichki nazorat tizimi nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyati, axborot-kommunikatsiya va monitoring kabi beshta komponentning uyg'un faoliyatiga asoslanadi. Tadqiqotchilar COSO modelini davlat sektorida qo'llash ichki auditning samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Davlat sektorida auditning konseptual asoslari INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan ISSAI 100 "Fundamental Principles of Public-Sector Auditing" standartida keng yoritilgan. Mazkur standart auditning qonuniylik, tejamkorlik, samaradorlik va natijadorlik tamoyillariga asoslanishini belgilaydi. ISSAI 100 davlat sektorida auditni nafaqat moliyaviy intizomni ta'minlash vositasi, balki davlat boshqaruvi sifatini oshirish mexanizmi sifatida talqin etadi. Shu jihatdan ushbu standart ichki auditning budget tashkilotlaridagi strategik ahamiyatini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

Milliy ilmiy adabiyotlarda ham ichki audit masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Xamidova Z. U.ning ilmiy tadqiqotlarida budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmatlari faoliyatining amaliy muammolari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif ichki auditni budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va qonunbuzilishlarning oldini olishning muhim vositasi sifatida baholaydi.

Shuningdek, "Davlat sektorida moliyaviy nazorat: muammolar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy maqolada davlat moliyaviy nazoratining institutsional muammolari, xalqaro standartlarni joriy etish imkoniyatlari hamda nazorat tizimini raqamlashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Mualliflar moliyaviy nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ichki audit xizmatlarining mustaqilligini kuchaytirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish davlat moliyaviy boshqaruvi samaradorligini oshirishning asosiy omillari ekanligini ta'kidlaydilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda ichki audit ko'proq risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv va qiymat yaratish vositasi sifatida talqin etilsa, milliy tadqiqotlarda uning moliyaviy nazorat va



budjet intizomini ta'minlashdagi roli ustuvor o'rin egallaydi. Shu bilan birga, budjet tashkilotlarida ichki auditning iqtisodiy mohiyati, uning davlat moliyaviy boshqaruvi tizimidagi institutsional o'rni hamda "uchta himoya chizig'i" modeli asosidagi funksional chegaralarini kompleks ravishda tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlanmalar yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan usullar majmuasidan foydalanilgan. Ilmiy adabiyot va xalqaro standartlarni o'rganishda nazariy umumlashtirish va qiyosiy tahlil, milliy normativ-huquqiy hujjatlarni baholashda esa huquqiy-dogmatik (kontent) tahlil qo'llanildi. Ichki audit, ichki nazorat va davlat moliyaviy nazorati tushunchalarini farqlash uchun qiyosiy jadval usuli, ularning o'zaro munosabatini ko'rsatish uchun esa "uchta himoya chizig'i" modeli asosidagi sxematik (grafik) modellashirish ishlatildi. Manba sifatida O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishga oid Prezident farmoni hamda ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ichki audit — tashkilotning boshqaruv, xavf-xatarlarni boshqarish va nazorat jarayonlari samaradorligini mustaqil hamda xolisona baholashga va takomillashtirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Uning mohiyatida ikki ustun tushuncha turadi: mustaqillik (auditning baholanayotgan jarayonlardan tashkiliy ajratilganligi) va xolislik (xulosaning shaxsiy manfaat va tashqi bosimdan xolisligi).

Budjet sektorida ichki auditning mazmuni o'ziga xosdir. Tijorat tashkilotlarida diqqat foyda va kapital qaytimiga qaratilsa, budjet tashkilotlarida markaziy o'rinni davlat mablag'laridan maqsadli, qonuniy va samarali foydalanish egallaydi. Amaldagi tartibga muvofiq, budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyati budjet intizomini mustahkamlash, budjet to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish hamda mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat sifatida belgilanadi.

Davlat moliyaviy boshqaruvi budjetni rejalashtirish, tasdiqlash, ijro etish va hisobot berish bosqichlarini qamrab oladi. Mablag' ajratilgandan keyin uning aniq tashkilot darajasida maqsadli sarflanishi ta'minlanishi kerak; aynan shu nuqtada ichki audit rahbariyatga tashkilot ichidagi xavf-xatarlar, jarayonlardagi takomillashtirish talab etiladigan jihatlar va resurslardan foydalanish samaradorligi to'g'risida mustaqil ma'lumot yetkazuvchi vazifasini bajaradi. O'zbekiston amaliyotida ichki audit xizmati boshqa tarkibiy bo'linmalardan mustaqil bo'lib, tizim tashkilotlarida audit faoliyatini amalga oshirsa-da, ularning asosiy faoliyati natijalari uchun javobgar hisoblanmaydi — bu auditorning xolisligini va manfaatlar to'qnashuvi yo'qligini ta'minlaydi.

Tahlil natijalari uchala tushunchani funksional jihatdan aniq ajratish imkonini berdi. Ichki nazorat — jarayonlarga singdirilgan, rahbariyat va barcha xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan uzluksiz mexanizm bo'lib, baholash obyekti hisoblanadi. Ichki audit esa uni mustaqil baholovchi subyektdir: u nazorat tizimining yetariligi va samaradorligini tekshiradi, takomillashtirish talab etiladigan jihatlarni aniqlaydi va tavsiyalar beradi, biroq nazorat tadbirlarini o'zi joriy etmaydi. Davlat moliyaviy nazorati esa budjet jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi keng tizim bo'lib, tashqi (parlament nazorati, oliy audit organi) va ichki (idoraviy audit) shakllarga bo'linadi. Bu farqlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.


Ichki nazorat, ichki audit va davlat moliyaviy nazoratining qiyosiy tahlili<sup>1</sup>

| Mezon                 | Ichki nazorat                               | Ichki audit                                      | Davlat moliyaviy nazorati                          |
|-----------------------|---------------------------------------------|--------------------------------------------------|----------------------------------------------------|
| <b>Mohiyati</b>       | Jarayonlarga singdirilgan uzluksiz mexanizm | Mustaqil baholash funksiyasi                     | Mablag'lar harakatini kuzatuvchi keng tizim        |
| <b>Roli</b>           | Baholash obyekti                            | Baholovchi subyekt                               | Ham ichki, ham tashqi qamrov                       |
| <b>Subyekti</b>       | Rahbariyat va barcha xodimlar               | Mustaqil ichki audit xizmati                     | Ichki va tashqi nazorat organlari                  |
| <b>Joylashuvi</b>     | Tashkilot ichida, jarayon ichida            | Tashkilot ichida, jarayondan ajratilgan          | Tashkilotdan tashqarida va ichida                  |
| <b>Asosiy maqsadi</b> | Maqsadga erishishga oqilona kafolat         | Nazorat tizimi samaradorligini baholash, tavsiya | Qonuniylik, maqsadlilik, samaradorlikni ta'minlash |

<sup>1</sup> **Manba:** muallif tomonidan tuzilgan.




Uchala tushunchaning o'zaro munosabatini "uchta himoya chizig'i" (three lines of defense) modeli orqali aniq tasvirlash mumkin (1-rasm). Birinchi chiziq — operatsion boshqaruv va xodimlar, ular xavflarni bevosita boshqaradi va ichki nazorat tadbirlarini bajaradi. Ikkinchi chiziq — moliyaviy nazorat, risk-menejment va muvofiqlik (compliance) funksiyalari bo'lib, birinchi chiziqni kuzatadi va metodik qo'llab-quvvatlaydi. Uchinchi chiziq — aynan ichki audit bo'lib, dastlabki ikki chiziqning ishlashini mustaqil baholaydi. Tashqi audit esa tashkilotdan tashqaridagi qo'shimcha kafolat darajasi sifatida qaraladi.



*Davlat moliyaviy nazorati tizimi (umumiy doira)*

#### 1-rasm. "Uchta himoya chizig'i" modeli va ichki auditning o'rni

Tushunchalarning iyerarxik bog'liqligi 2-rasmda aks ettirilgan: davlat moliyaviy nazorati eng keng doirani, idoraviy (ichki) daraja undan ichkarini tashkil etadi; bu daraja ichida ichki nazorat baholash obyekti, ichki audit esa baholovchi subyekt sifatida joylashadi.



2-rasm. Ichki nazorat, ichki audit va davlat moliyaviy nazoratining iyerarxik munosabati

Bu chegaralarni aniq ajratishning amaliy ahamiyati katta: o'zi joriy etgan jarayonni baholagan auditorning xulosasi ishonchli bo'la olmaydi; funksiyalarni aniq taqsimlash takroriy ishlarning oldini oladi; ichki va tashqi nazorat o'rtasidagi koordinatsiya esa tizim samaradorligini oshiradi. O'zbekistonda barcha nazorat va audit



tadbirlarini yagona elektron platformada qayd etish aynan shunday koordinatsiya va ortiqcha tekshiruvlarning oldini olish maqsadiga xizmat qiladi.

Ichki auditning yakuniy qiymati uning hisobdorlik, shaffoflik va budget intizomini mustahkamlashga qo'shadigan hissasida namoyon bo'ladi. Hisobdorlik nuqtai nazaridan ichki audit mustaqil va hujjatlashtirilgan baho berish orqali boshqaruv faoliyatini xolisona tasvirlaydi; auditor xulosalari qaror qabul qilish uchun dalil bazasi bo'lib xizmat qiladi. Bunda ichki auditning o'zi ham belgilangan tartibda hisobot taqdim etishi "nazoratchini kim nazorat qiladi" muammosini hal etishga yordam beradi.

Shaffoflik jihatidan ichki audit moliyaviy hisobotlar va boshqaruv ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirish orqali ularning ishonchliligini oshiradi. O'zbekistonda joriy etilgan fuqarolar ishtirokidagi audit amaliyoti — fuqarolar ishtirokida tanlanadigan obyektlarda nazorat tadbirlarini o'tkazish — ichki audit va shaffoflikni jamoatchilik nazorati bilan bog'lovchi amaliy misol sifatida baholanishi mumkin. Budget intizomi jihatidan esa ichki auditning bevosita maqsadlaridan biri qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olishdir; masofaviy audit va xavf tahlili mexanizmlari bu profilaktik yondashuvni amalda qo'llashning samarali vositasiga aylanmoqda. Bu uch element o'zaro bir-birini kuchaytiradi: shaffof ma'lumot hisobdorlikni mumkin qiladi, hisobdorlik intizomni mustahkamlaydi, mustahkam intizom esa resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ichki audit borasidagi islohotlar nazariy adabiyotda ilgari surilgan zamonaviy yondashuvlarga mos keladi. Mustaqil ichki audit xizmatlarini tashkil etish IIA va INTOSAI standartlaridagi mustaqillik talabiga, profilaktik yondashuvga ustuvorlik berish esa auditning jazolovchi emas, balki qiymat qo'shuvchi funksiyasi haqidagi qarashga muvofiqdir. Nazorat tadbirlarini yagona elektron tizimda qayd etish "uchta himoya chizig'i" modelidagi koordinatsiya tamoyilini amalda ta'minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot bir qator muammolarni ham ko'rsatadi. Birinchidan, amaliyotda ichki audit ko'pincha an'anaviy revizion (tekshiruv) faoliyat bilan tenglashtirilib, uning maslahat va profilaktik vazifasi yetarlicha rivojlanmagan. Ikkinchidan, ichki auditorlarning malakasini xalqaro sertifikatlash talablariga moslashtirish, raqamli va masofaviy audit vositalarini kengroq joriy etish dolzarbligicha qolmoqda. Uchinchidan, ichki audit samaradorligini o'lchovchi yagona ko'rsatkichlar tizimi (KPI) hali to'liq shakllanmagan, bu esa uning haqiqiy ta'sirini baholashni qiyinlashtiradi. Bu masalalar kelgusi empirik tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning cheklovi shundaki, u asosan nazariy va huquqiy tahlilga tayanadi; ichki audit faoliyatining miqdoriy natijalarini baholash uchun amaliy statistik ma'lumotlar asosidagi empirik tadqiqotlar talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, budget tashkilotlarida ichki auditning iqtisodiy mohiyati davlat mablag'laridan maqsadli, qonuniy va samarali foydalanishni ta'minlash, boshqaruv qarorlari sifatini oshirish va xavf-xatarlarni boshqarishni takomillashtirishda namoyon bo'ladi; u davlat moliyaviy boshqaruv tizimida tashkilot darajasidagi mustaqil baholash funksiyasini bajaradi.

Ikkinchidan, ichki audit, ichki nazorat va davlat moliyaviy nazorati o'zaro bog'liq, biroq funksional jihatdan farqlanadigan tushunchalardir: ichki nazorat — jarayonlarga singdirilgan mexanizm (obyekt), ichki audit — uni baholovchi mustaqil funksiya (subyekt), davlat moliyaviy nazorati esa butun budget jarayonini qamrab oluvchi keng tizimdir. "Uchta himoya chizig'i" modeli bu chegaralarni aniq ajratishga imkon beradi.

Uchinchidan, ichki audit hisobdorlik, shaffoflik va budget intizomini mustahkamlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy davlat boshqaruvining muhim institutsional vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar ichki auditni tekshiruv vositasidan boshqaruv sifatini oshiruvchi mexanizmga aylantirishga qaratilgan. Kelgusi tadqiqotlarda ichki audit samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, auditorlar malakasini xalqaro standartlarga moslashtirish va raqamli audit vositalarini joriy etish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O'RQ-360-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2304138>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 27-avgustdagi PF-6300-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5607471>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6136910>



4. The Institute of Internal Auditors (IIA). Global Internal Audit Standards. International Professional Practices Framework (IPPF). — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024.
5. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control — Integrated Framework. — New York: American Institute of Certified Public Accountants, 2013.
6. INTOSAI. ISSAI 100: Fundamental Principles of Public-Sector Auditing. — Vienna: International Organization of Supreme Audit Institutions, 2019.
7. Xamidova Z. U. Budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat va ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish // Iqtisod va moliya. — 2020. — №3(135). — B. 78–84.
8. Temirov M. X. Davlat sektorida moliyaviy nazorat: muammolar va rivojlanish istiqbollari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2024. — T. 2, №1. — B. 143–153. DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss1-pp143-153.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 5 (3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>